

IJOBIY TILAKLARNING FUNKSIONAL SEMANTIK TABIATIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna

Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ijobiy tilak nutqiy janri so'zlashuv nutqida turli nutqiy janrlar tarkibida kelishi, ularni mazmunan to'ldirishi va boyitishi, shu bilan birga, o'zbek xalqining duogo'yligini ko'rsatishi bilan bog'liq milliy ruhni ifodalash funksiyalarini ham bajarishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: adresant, adresat, duo, qadah so'zi, suyunchi, ta'ziya, fol, maqto'v, minnatdorchilik, shukronalik, olqish.

Аннотация. В статье рассматривается, что речевой жанр позитивных пожеланий входит в состав различных речевых жанров разговорной речи, наполняет и обогащает их содержанием, одновременно выполняя и функции выражения национального духа, связанные с молитвенности узбекского народа.

Ключевые слова: адресант, адресат, благословение, тост, радость, соболезнование, гадание, похвала, благодарность, аплодирование.

Annotation The article examines that the speech genre of positive wishes is part of various speech genres of colloquial speech, fills and enriches them with content, while simultaneously performing the functions of expressing the national spirit associated with the prayerfulness of the Uzbek people.

Key words: addressee, addressee, blessing, toast, joy, condolences, fortune telling, praise, gratitude, applause.

Tilak nutqiy janrining funksional tabiatida moslashuvchanlik, kirishuvchanlik, mazmuni to'ldirish, semantik boyitish kabilar mavjudligi bois uning funksional semantik va pragmatik mazmunlarida so'zlovchining ijobiy munosabati va xayrixohligi, uning biror kishi yoki narsani e'tirof etishi, maqto'vi, madhi, olqishi, qo'llab-quvvatlashi, duosi, shukronaligi, da'vati, minnatdorchiligi, tabrigi, madh etish, tavoze qilish, ta'zim qilish, minnatdorchilik bildirish, niyat va maqsadlarini Oллоhdan so'rash, o'z hurmatini izhor qilish, tilga olingan shaxslarni hurmat bilan eslash, ta'ziya izhor qilish, yaxshilik tilash, da'vat etish, undash, qo'llab quvvatlash, ishonch bildirish, o'z xayrixohligini izhor qilish kabilar o'z ifodasini topadi. Til tizimida ijobiy tilaklarning uslubiy turlari va ushbu turlarda ularning funksional mazmunlari farqlanadi. So'zlashuv uslubida quyidagi funksional semantik mazmunli tilak shakllarini qayd etish mumkin:

Duo+tilak: a) -Qani, omin, ko‘rgan balolaring orqangda qolgan bo‘lsin, qasd qilganlar, past bo‘lib, murodiga yetmasin. Bu yog‘iga ishlarining yurishib, bola-chaqangga bosh bo‘lgin, omin, Ollohu Akbar! –deb kampir tokchadan meva-chevali patnis, non olib xontaxtaga qo‘ydi [2:6]. b) -Omin, Yaratgan egam barcha bandai mo‘min qatori bizgayam tinchlik, xotirjamlik ato etsin, omin, Ollohu Akbar! –Kampir yuziga fotiha tortib, ayolga yuzlandi: - Isming nima, qizim? So‘ramabmanam [2:9].

Qadah so‘zi + tilak: Bu gapni shunchalik samimiy aytdiki, beixtiyor sandal chetiga cho‘kdim. — Ushlang! — dedi shampan to‘la piyolani uzatib. —Bilaman, ichmagansiz. Ammo bugun boshqacha kun... Bugun ichsa bo‘ladi. Shuning uchun ichaylikki, kirib kelayotgan yangi yil — qirk ikkinchi yil urushning oxirgi yili bo‘lsin! Jangchilarimiz Berlingacha borib, fashistlarni yanchib tashlasin! Urushga ketganlar sog‘-salomat, qahramon bo‘lib qaytishsin! Eng muhimi... — U jilmayib ta'kidladi. — Eringiz omon-eson kelsin. Beixtiyor piyolani labimga olib bordimu vishillabturgan notanish isdan ijrganib, dasturxonga kuydim. Rostini aytsam, osh yegim kelardi. — Meni xafa qilyapsiz, Ra‘noxon! — dedi Umarzakunchi hamon aroq to‘la piyolani qo‘lida tutib turarkan. — Onangizga bergan va‘damni shu kungacha bajarolmadim. Raz men kolxozning otasi ekanmanmi, sizdan xabar olib turishim kerak. Faqat ishda emas, mana bunaqa ulug‘ ayyom kunlarida ham. Iltimos, sazamni o‘ldirmang. Yarim piyola shampan ichimga olov bo‘lib kirdi. Boshim aylanib ketdi. Uch-turt cho‘qim osh olishim bilan u tag‘in piyolamni to‘ldirdi. Yo‘q! — dedim qatiy bosh chayqab. — Bo‘ldi. Shunaqa tilak aytamanki, ichmasangiz bo‘lmaydi! — Zakunchi piyolasini piyolamga cho‘qishtirdi. Ko‘kish ko‘zlarida yana o‘sha samimiy olov porladi. — Shomurod ukamiz tezroq kelsinu yanagi yil, shu kunlarda uyingizda chaqaloq yig‘isi eshitilsin! [4:111]

Suyunchi+duo: a) Suyunchi bering, bolalarim! – dedi oyim fonusni tokchaga qo‘ya turib. – Tog‘angni to‘yi yurishib qoldi. Nasib etsa, mayram kuni –nikoh! – Azza-bazaxon taxta ro‘parasiga o‘tirib qo‘l ochdi. – Iloyo qo‘shgani bilan qo‘sha qarisin, o‘zidan ko‘paysin. Senlargayam yaxshi joylardan ato qilsin![4:100] b) -Voy, suyunchi ber, qizing o‘g‘illi bo‘ldi, bolam?-dedi Istat xola quvonchi ichiga sig‘may. –Biram shirin, biram shirin, umri bilan bergan bo‘lsin, iloyim! Quyib qo‘yganday o‘zing! Bir urib, Egamqulni kichkina qilib qo‘yganday! Xudo xohlasa, buvasiga o‘hshagan mard, chapani, tanti yigit bo‘ladi dedim [2:8].

Ta‘ziya+duo: Olloh rahmatiga olsin! Joylari jannatda, tanlari rohatda bo‘lsin. Olloh ajringni ulug‘ qilsin, sabringni go‘zal qilsin va vafot etganni mag‘firat qilsin.

Fol +tilak: - Ako mullo, keling, folingizni ko‘ray! ... Baxtingizdan ochaymi, taxtingizdan ochaymi? Qayondon kelopsiz, qayon ketopsiz – o‘n so‘mginaga aytaman, qurboningiz bo‘lay!... -E, bor, bor, yo‘lingdan qolma!- deb jerkib berdi Egamqul va nari ketdi. Lo‘li ayol negadir xavotir bilan u yoq bu yoqqa qarab oldida,

yana ergashdi. - Sez uzoq-uzoqdan kelosiz, ko‘p yo‘l yurdengiz, juda charchagansez... - Shuni bilsang bo‘pti-da, meni tinch qo‘y. - Ammo borar joyingiz qorong‘ye ... tuman bosgan, ko‘rinmopti ... Pul chiqoring, pul chiqoring... ko‘rinay-ko‘rinay deyopti! Qo‘lingizne bering – yo‘lingizne aytoman... – Shunday deb u Egamqulning qo‘lini oldi. -Yo‘limni sensiz ham jaa yaxshi topib olaman! – deb Egamqul ayolning kaftlari orasidan qo‘lini sug‘urib oldi va yo‘lida davom etdi. - Aka mullo, keling, bitta duo qilay, xay? – u Egamqulning bilagidan ushlab to‘g‘tadi. – Qo‘lingizni ocheng, man duo qilsam, ijobat bo‘lade. Iloyo, rizqyengiz oshdan bo‘lsen, boshingiz toshdan bo‘lsen, uyingizga qosh bo‘ling, to‘y-hashamga bosh bo‘ling, tishingiz tosh ko‘rmasen, ko‘zingiz yosh ko‘rmasen... . Egamqul zerikib ketdi. Fotihaga ochgan qo‘lini yig‘ishtirib, ketishga chohlandi. Ayol chuldirashdan to‘g‘tamasdi: -Bevaqt to‘zishdan, qarimay o‘lishdan, chayonne zag‘redan, Ollog‘ning qahredan, o‘g‘rini ko‘zedan, yamonne so‘zedan, o‘t balosedan, suv balosedan saqlab, Yaratgan Egam rizqyengizne socheq, yo‘lingizne ochiq qilgan bo‘lsin, omin, Oллоhye Akbar! [2:4].

Shuni aytish kerakki, internet tarmog‘i bilan bog‘liq saytlar, kanallarda tashkil qilinadigan maishiy suhbatlarda, xususan, kommentariyalardagi ijobiy tilaklarning funksional semantik mazmunlari ham o‘ziga xos shakllarni yuzaga keltiradi. Masalan:

Duo+tilak: Alloh rozi bo‘lsin. Biz musofirlarni tushunganlarni Alloh ishlarini xayrli qilsin, Mo‘min Oripovni joylari jannatda bo‘lsin, xudoyim rahmat qilsin, Oллоh umringizni uzoq qilsin, ilohim.

Maqtov+duo+tilak: Super, opa, Yulduz opa, baxt, omad, taxt, go‘zallik sizga tilayman, oilangiz baxtiga sog bo‘ling, ijodingizga omad yana bir bor.

Minnatdorchilik+da‘vat+tilak: Otamizga rahmat. O‘zbekiston olg‘a! Omad yor bo‘lsin! Rahmat, o‘g‘lim, martabangiz ulug‘ bo‘lsin!

Shukronalik+tilak: Shavkat aka, omon bo‘ling, yurtboshimiz, O‘zbekistonni o‘ylaydigan prezidentimizni Alloh bergan bizga!

Olqish+tilak: Yashasin do‘stlik! Butun dunyoda tinchlik bo‘lsin! kabilar.

Ko‘rinadiki, yuqorida keltirilgan ijobiy tilak nutqiy janri so‘zlashuv nutqida turli nutqiy janrlar tarkibida kelib, ularni mazmunan to‘ldirish va boyitish, shu bilan birga, o‘zbek xalqining duogo‘yligini ko‘rsatish bilan bog‘liq milliy ruhni ifodalash funksiyalarini ham bajaradi.

Adabiyotlar:

1.Бахтин М. М. Проблема речевых жанров // Литературно-критические статьи. – Москва.: Художественная литература, 1986, – С. 428-472.

2.Бoshbekov Sh. Charhpalak. – Т.: O‘zbekiston, 2017. – 295 б.

3.Дементьев В. В. Теория речевых жанров. (Коммуникативные стратегии культуры). – М, 2010. – С. 597.

4.Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 762 b.

5.Nabieva, D., & Nurmanova, D. (2022). Manifestation Of The Generality-Specificity Dialectic In The Vowel System Of The Uzbek Language. *Journal of Positive School Psychology*, 6 (8), 1765-1771.

6.Nurmanova, D.A. (2021). Neutralization of Consonant Opposition in Anlaut of the Uzbek Language. *Academicia Globe*, 2 (6), 347-354.

7.Nurmanova, D.A. (2019). Текст, Как универсальная форма репрезентации "Части от целого". *Theoretical & Applied Science*, (4), 582-585.

8.Pulatjonovna, S. D. (2023). Linguistic analysis of artistic text. *Pedagog*, 6 (11), 305-308.

9.Sayfutdinova Durдона Pulatjonovna. (2024). Lingvosemiotic Content ofLinguistic Features ofThe Speech Genre “Wish”. *Global Scientific Review*, 26, 20–23. Retrieved from <http://www.scienticreview.com/index.php/gsr/article/view/405>